

OROL BILAN BOG'LIQ BIR TOMCHI SUVNING QIYMATI

Rahimova Munira

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Orol dengizi va orol bo'yи hududi ma'muriy jihatdan O'zbekiston (Qoraqalpog'iston)va O'zbekiston hududida joylashgan. Orol dengizining yarmidan ko'proq qismi O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi. Biz bejizga bu haqda so'z ochmadik.

Hatto kichkina teshik ham, kemani cho'ktirib yuborish qobiliyatiga ega. Masalan, biz e'tibor qaratmagan elementar sabablar, sug'orma dehqonchilik sohasida suvdan oqilona foydalanmaslik va kichikina detal sifatida qaragan omillar bugungi kunga kelib, orol bo'yи fojiasiga aylandi. Bir paytlar Amudaryo va Sirdaryo orol dengizi deltasiga SUV quyardi. Natijada orol dengizidan baliqchilik, ovchilik, transport, va erkratsion maqsadlarda foydalanilar edi. Hozirgi kunga kelib orol bo'yи "Kemalar qabristoni"ga ayblanib qolish bilan birga, SUV sathining keskin kamayishi oqibatida cho'kindi tuzlarning ko'chishi, atrof muhitni zararlanishi natijasida aholi orasida, buqoq, nafas yetishmovchiligi, teri va turli xil alergik kasalliklarga chalinish holatlari yuz bermoqda. Qolaversa,tuzli chang orol qumdan o'nlab hatto yuzlab kilometr masofalarga tarqalib, tabiiy o'tloqlar, vohalardagi ekinlar, bog'lar, shaharlar va qishloqlar ustiga yog'iladi. Noqulay ekologik vaziyat qishloq xo'jalik ekinlari hosilini va chorva mahsulotlari yetishtirishning keskin kamayishiga olib keldi. Faktlarga ko'ra, SUV sathining pasayishi bilan qirg'oq chizig'i 100 km dan ortiqroq orqaga chekingan. Dengiz tubi o'rnida 4mln gektardan ortiq maydonni egallagan yosh Orolqum cho'li paydo bo'ldi. Sho'rolar zamonida Orolning kelajak taqdiriga befarq qaraldi. Amudaryo va Sirdaryodan SUV ichadigan Markaziy Osiyoda joylashgan Respublikalarda paxta yetishtirish rejasi yildan yilga oshirib borildi. O'zbekiston sobiq ittifoqda eng ko'p paxta yetkazib beradigan Respublika edi. G'o'za SUVGA nihoyatda talabchanligi uchun yoz oylari ikki daryoning suvi asosan ekin sug'orishga sarflanadi. Bu esa orolga ushbu daryolardan boradigan suvning kamayishiga olib kelib, dengizda SUV sathi tobora pasaya borgan. Dengiz bilan bog'liq muammolarni to'xtatish borasida amaliy ishlar qilinmagan.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishgach, orol muammolariga ham jiddiy e'tibor berildi. Istiqlol yillarda dengiz qurishi bilan bog'liq zararli oqibatlari kamaytirish, Orolbo'yи mintaqasida yashovchi odamlarning sihat-salomatligini

saqlash, turmush sharoitlarini yaxshilash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Uning qurigan joylariga saksovulzorlar, yashil o'rmonlar yaratishga qaratilgan tadbirlar ko'rildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu boradagi ishlar yuqori bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil sentabrdada BMT Bosh assambleyasining 72- sessiyasida Orol haqida nutq so'zlab, dunyo hamjamiyati e'tiborini qaratdi. 2018-yil 27-noyabrda BMTning Orolbo'yini mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi. Bu tashabbusni Prezidentimiz taklif qilgan edi. Bu tashabbusni xalqaro tashkilot qo'llab -quvvatladi. Bu esa orol fojiasi yaqin va uzoq mintaqalarga tegishli global muammo ekanligining e'tirof etilishidir. Suv Ollohnning tirik mavjudotlarga ato etgan muqaddas unsurdir. Uning bir tomchisi ham bebaho ne'mat aslida. Bugungi shiddatli global asrda dunyo davlatlarning ayrimlari qurg'oqchilikka yuz tutayotgan bir paytda, Vatan tuyg'usiga daxldor har bir shaxs suv bilan bog'liq ekologik muammolarning kelib chiqishiga befarq bo'lmasligi lozimdir. Zero, suv-hayot manbaidir. Ona tabiat in'om etgan bebaho ne'matni avaylamasak, Orolboyi fojiasidek ekologik muammolar boshimizda charx uraveradi.